



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-oktabr

585-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21 apreldagi 206-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2024-yil 9-oktabrdagi 651-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 497-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli amalga oshirish, mablag‘larning maqsadli va samarali sarflanishini ta‘minlash, shuningdek, sohada nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-apreldagi 206-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2024-yil 9-oktabrdagi 651-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrdagi 497-6-0-Q/24-sonli qarorlarini ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 22-oktyabrdagi 497-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-oktabrdagi 651-son qarori bilan:
Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish va davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-apreldagi 206-son qaroriga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar ilovaga muvofiq kiritilganligi:
Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini (keyingi o‘rinlarda Dastur) shakllantirish va kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirishi;
dasturga kiritilgan loyihalar (obyektlar) amalga oshirilishini monitoring qilish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirishi;
investitsiyalarni boshqarish tizimini iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan tadbirlarni hisobga olgan holda isloh qilishi;
davlat investitsiyalarini boshqarish tizimini raqamlashtirish va shaffofligini oshirish ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning moliya- iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari H.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov